

O' TKIR HOSHIMOVNING “BAHOR QAYTMAYDI” ASARIDA VIJDON MASALASI

Abdullayeva Zunnura Shavkat qizi
NamDU Filologiya fakulteti
o'zbek tili yo`nalishi bitiruvchisi
E-mail:abdullayevazunnura2@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada taniqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimovning “ Bahor qaytmaydi” asarida insoniylik va vijdon masalasi badiiy va ilmiy taraflama tahlil qilib, o'rganiladi. Asar qahramonlarining ruhiy-kechinmalari orqali vijdon masalasi tushunchasining axloqiy-me'yoriy ahamiyati ochib beriladi. Insoniylik, hayot sinovlari va uning oqibatlari badiiy obrazlar orqali yoritiladi. Maqolada ramziy obrazlar va g'oyaviy mazmun tahliliga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: insoniylik, vijdon, badiiy obraz, o'zbek adabiyoti, ramziy ma'no, O'tkir Hoshimov, tanlov.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема гуманности и совести в произведении известного узбекского писателя Уткира Хошимова «Баҳор қайтмайди» с художественно-научной точки зрения. Морально-этическое значение категории совести раскрывается через психологические переживания главных героев произведения. Темы гуманности, жизненных испытаний и их последствий освещаются посредством художественных образов. Особое внимание в статье уделяется анализу символических образов и идейного содержания произведения.

Ключевые слова: гуманность, совесть, художественный образ, узбекская литература, символическое значение, Уткир Хошимов.

Abstract: This article examines the issues of humanity and conscience in the work of the prominent Uzbek writer O'tkir Hoshimov, “Bahor qaytmaydi” (Spring Will Not Return), from an artistic and scholarly perspective. The moral and ethical significance of the concept of conscience is revealed through the psychological experiences of the main characters. The themes of humanity, life's trials, and their consequences are interpreted through artistic images. Particular attention is paid to the analysis of symbolic imagery and the ideological content of the work.

Keywords: humanity, conscience, artistic image, Uzbek literature, symbolic meaning, O'tkir Hoshimov, competition.

KIRISH

Zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakili O'tkir Hoshimov o'zining bir qator nodir asarlari bilan inson ruhiyatiga kirib bordi. U vijdon va hayot haqiqatlarini chuqur va ta'sirchan yoritgan ijodkor sifatida tanilgan. Uning asarlarida oddiy xalq, oddiy inson taqdiri, jamiyatdagi axloqiy muammolar badiiy mahorat bilan aks ettiriladi. Mana shunday asarlardan biri yozuvchining “Bahor qaytmaydi” asari hisoblanib, insoniylik, vijdon va ahyot oldidagi ma'suliyat masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Asarda qahramonlar taqdiri orqali shaxsiy manfaat va vijdon o'rtasidagi ichki kurash badiiy ifoda etgan. Yozuvchi ushbu qissa orqali insonning o'z-o'zini halokatga olib kelishi mumkin bo'lgan ichki illatlarni chuqur tahlil qiladi. Qissadagi psixologik tahlil, inson qalbidagi iztiroblar va vijdon masalasiga alohida e'tibor qaratgan. O'tkir Hoshimov ijodini “oddiy odamlar ruhiyatini chuqur ochib bera oladigan adib” deya ayta olamiz.¹

Yozuvchining mahorati aynan asarga nom berishidayoq yaqqol ko'zga tashlanadi. “Bahor qaytmaydi” qissasi inson umrining va shuhratining boqiy emasligi, shon-sharafga berilib, asl hayotning zavqlaridan, haqiqiy muhabbat va do'stlikdan voz kechmaslik haqida. Asarda yozuvchi iste'dodga ega, biroq uning qadriga yetmagan, buyuk maqsadlaridan shuhratiga ishonib voz kechgan, xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma'naviy inqirozini mohirona yoritib beradi. Ana shu ijodkorona tahlil tasvirining tuyg'ularga boyligi va samimiyligi bilan o'quvchilarning qalbiga yo'l topdi, ko'plarning qalbini hayajonga soldi. Qissa matnida boshdan-oyoq muallifning o'ta nozik va nafis kuzatishlari, qalbi tebranishlarini, rang-barang kechinmalarini, zavq-shavq, armon-o'kinchlarini xilma-xil tuyg'ulari aks etgan.

Asarda yozuvchi yaxshi is'tedodli, lekin uni qadriga yetmagan o'z orzularidan mahrum bo'lgan, o'z manfaatlarini o'ylagan yigitning tanazzul tarixini, uning inqirozini tasvirlab beradi.²

Asar syujeti asosida 1972-yilda film-spektakl sur'atga olingan bo'lib u tomoshabinlar orasida keng tarqalgan. Filmda is'tedodli mashhur o'zbek aktyor va aktirisalari ro'l ijro etishgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Bahor qaytmaydi” asarida insoniylik masalasi qahramonlarning hayotiy tanlovlari orqali ochib beriladi. Muallif insoniylikni boshqalarga nisbatan mas'uliyat va vijdon bilan bog'laydi. Asarda shaxsiy manfaat va vijdon o'rtasidagi ichki ziddiyat muhim o'rin tutadi. Ayrim qahramonlarning vijdoniga qarshi ish tutib, keyinchalik iztiroblarga duchor bo'lishiga olib keladi. O'tkir Hoshimov qahramonlar ruhiy holatini chuqur tahlil qilish orqali inson qalbining murakkbligini ochadi. Insoniylik va vijdon mezonlari haqida mushohada yuritishga chorlaydi. Aytaylik asar bosh qahramoni Alimardon To'rayev o'zidagi bor iste'doddan, imkoniyatlardan o'z nafsini yo'lida foydalandi. Vijdoniga qarshi turib, sodiq do'sti Anvarning sevganini o'ziniki qildi. U ko'proq shaxsiy manfaat, mansab va moddiy ustunlikni hayotining asosiy mezoni deb

biladi. To'g'ri Anvar uning tili bilan aytganda "latta" edi. Anvar Muqaddamga qalb kechinmalarini aytolmas, uning qo'lidan tutishga, ko'ziga tik qarab uni jonidan ortiq sevishini izhor qilishga botina olmas edi:

"Anvar hushini yig'ib olguncha u chopqillab tusha boshladi. Anvarning yuragi gupillab urib ketti, U Muqaddamning hozir bag'riga kelib urilishini bilib turar, ammo quchoqlab olishini ham, qo'lidan tutib qolishini ham bilolmay ikkilanardi. Anvar hushini to'plab bo'lguncha Muqaddam shiddat bilan yetib keldi. Anvar o'zini birdan chetga oldi-da uning bilagidan mahkam tutib qoldi. Muqaddam keskin burilgancha uning ko'ksiga urildi. U negadir ko'zlarini yumgancha hadeb kular, Anvar esa hayajondan nafasi tiqilib nima qilishini bilmay qolgan edi. Muqaddam unga hech qachon bunday yaqin turmagan, uning sochlari hech qachon Anvarning yuziga tegmagan edi. Anvar hayajondan bo'g'ilib qolgan, o'zi ham ma'nosini tushunib yetmagan allanimadan uyalar edi".³

Asarda Anvar va Alimardon o'rtasidagi qarashlar to'qnashuvi insoniylik va vijdon masalasining badiiy ifodasiga xizmat qiladi. Muallif bu ikki qahramon taqdiri orqali insonning hayotdagi tanlovi uning kelajag yo'lini belgilashini asoslab beradi. O'tkir Hoshimov tayyor xulosa bermay o'quvchini voqealar va qahramonlar taqdiri ustida mushohada yuritishga undaydi. "Anvar do'stining bo'g'i ovozidan hafa bo'lganini tushundi, ko'z ilklarining cheti tirishib, qizarib ketdi. Uning sal narsaga qizarishi ham, qizlardek tortinchoqligi ham, chiroyli chehrasi ham ko'pincha Alimardonning jig'iga tegardi. " Bundan ko'rinib turibdiki muallif asarda ikki qahramonning harakter xususiyatlarini zidlab, biri-biriga qarama-qarshi qilish bilan o'quvchining qiziqishini orttiradi. Asar so'nggi nima bilan tugashi haqida o'ylashga majbur qiladi.

Muqaddamga kelsak Anvardan Alimardondagi dadillikni kutadi. Ammo voqealar rivoji Alimardonga turmushga chiqishga olib keldi. Muqaddam ham tom ma'noda o'z vijdoniga qarshi turdi. Afsuski bu asar rivojida Alimardondan ajralishiga olib keldi. Balki Muqaddam aybsizdir, chunki Alimardonning bu darajada shumligini tahmin qilmagandir. Voqealar ketma-ketligida u jazoni oldi ya'ni Alimardonning e'tiborsizligi, qo'rs-qo'polligi va eng daxshatlisi uning xiyonati sabr kosasini to'ldirdi. Asar so'ngida baxtli bo'ldimi? Ha! Uni sevgan, sevgisi uchun kurasha olgan bir insonga turmushga chiqdi.

Jahon adabiyotida ham "Bahor qaytmaydi" asari mazmun-mohiyatiga o'xshash asarlarni uchratish mumkin. Masalan, fransuz yozuvchisi Stendalning "Qizil va Qora" romanini olaylik. Bu ikki asar turli davr va madinayatda yaratilgan bo'lishiga qaramay, ularni birlashtiruvchi asosiy jihat-insoniylik, vijdon va shaxsiy manfaat o'rtasidagi ziddiyatdir. Har ikkala asarda ham qahramonlar jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonida murakkab tanlovlar qarshisida qolishadi. "Bahor qaytmaydi" asaridagi Alimardon obrazi Stendal romanidagi Julien Sorel xarakteri bilan qiyoslasak bo'ladi. Ikkala qahramon ham, mansab, mavqe va moddiy farovonlikni, o'z nafsini hayotining ustuvor

mezonlardan cheklanishga moyil bo'ladi. Julien Sorel jamiyatda mashhur bo'lish uchun ikkiyuzlamachilik va hisob-kitobga asoslangan qarorlar qabul qilgan bo'lsa, Alimardon ham shaxsiy manfaatalarini insoniylikdan ustun qo'yadi. Natijada har ikkala obrazda ham ma'naviy va ichki tanazzul yuzaga chiqadi. Julien Sorelning xarakter jihatlarini ushbu asardan olingan parchadan ko'rsak bo'ladi. "U o'zini sevishga majbur qilayotganini anglardi, ammo mag'rurligi ustun kelardi".³

Asardagi Anvar obrazini esa Julien Sorelga nisbatan muqobil axloqiy pozitsiyani ifodalaydi. Anvar vijdon azobi, ichki ikkilanish va ma'suliyat hissi bilan yashaydi. Bu jihatdan Anvar obrazi "Qizil va Qora" asarida jamiyat bosimi ostida qolgan, ammo, oxir oqibat o'z ichki haqiqatiga duch kelgan Julien Sorelning ruhiy kechinmalariga ma'lum darajada yaqinlashadi.

Bu ikki asarda ham insoniylik va vijdon masalasi jahon adabiyotida umuminsoniylik muommo ekanini ko'rsatadi. Har ikkala asar ham o'quvchini axloqiy tanlovlar, mas'uliyat va insoniy qadriyatlar haqida chuqur o'ylashga undaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'rinadiki, O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasida insoniylik va vijdon masalasi markaziy g'oya sifatida badiiy jihatdan chuqur yoritilgan. Asardagi Anvar va Alimardon obrazlari orqali muallif shaxsiy manfaat va axloqiy mas'uliyat o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Anvar obrazi vijdon, mas'uliyat va ichki poklik timsoli sifatida namoyon bo'lsa, Alimardon obrazi mansabparastlik va ma'naviy befarqlik oqibatlarini ifodalaydi.

"Bahor qaytmaydi" qissasini oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida axloqiy-tarbiyaviy asar sifatida chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. Xursanova Mahliyo Sunnattilo qizi, O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asaridagi barqaror birikmalarning lingvistik tahlili(frazeologizmlar misolida) vol.3no.32(2023):ijodkor o'quvchi
2. O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi: qissa va hikoyalar. -T.: Yangi asr avlodi, 2019- B.280
3. Stendal "Qizil va qora". G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1979.
4. Qayumov A. Adabiy tahlil asoslari. -Toshkent: Fan, 2008.